

**KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA POLISEMIYA TUSHUNCHASINING
SHAKLLANISHI**

Nilufarxon Mahmudova

Qo'qon DU o'qituvchisi

Malikaxon Nasirova

Qo'qon DU talabasi

Annotatsiya. Maqolada dunyo olimlarining polisemiya va kognitologiya haqidagi fikrlari hamda o'zbek tilidagi misollar asosida nazariy yondashuvlar yoritiladi. Bu yondashuv polisemiya fenomenini faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki inson ongining faol kognitiv jarayoni sifatida tushunishga xizmat qiladi. Keltirilgan misollar orqali ko'pma'nolilikning tafakkur tuzilmasi bilan qanday bog'liqligi ko'rsatiladi. Kognitiv yondashuv asosida til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib beriladi.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistika, kognitiv tahlil, polisemiya, ko'chim, metafora, metonimiya.

Kognitiv tilshunoslikda polisemiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi haqida qisqacha ma'lumot beriladi va polisemianing psixolingvistika va korpus lingvistikasi kabi yaqin sohalarda qanday tadqiq qilinganiga e'tibor qaratadi. Kognitiv tilshunoslikda polisemiya bo'yicha kelajakdagi tadqiqotlar uchun dolzarb yo'nalishlar va ehtiyojlarni ko'rsatib o'tadi.

Kognitiv tilshunoslikda polisemiya quyidagi uch asosiy tamoyil asosida talqin qilinadi:

1. Ma'no yoki ma'no talqinini kategoriyalash sifatida tushunish;
2. Kontekstning ahamiyatini tan olish va tilshunoslik hamda entsiklopedik bilimlar o'rtasidagi chegaraning noaniqligini hisobga olish;
3. Prototip nazariyasini tilshunoslikka tatbiq etish.

Birinchi talqinga ko'ra, ma'no yoki ma'no talqini – bu kategoriyalash jarayonidir. Masalan, chumchuqni "qush" deb tan olish – bu "qushlar" degan bir

toifadagi kategoriya mavjudligini anglab yetish, ya’ni chumchuqni shu toifa a’zosi sifatida qabul qilishdir. Shunday qilib, leksik birliklar – inson ongida mavjud bo‘lgan konseptual (tushunchaviy) kategoriyalarning til orqali kodlangan kichik to‘plamidir.

Ikkinci talqinga ko‘ra, leksik birliklarning ma’nolarini aniqlash kontekstsiz va real hayotga oid entsiklopedik bilimlarsiz deyarli imkonsizdir. Bu yondashuv Fillmore (1975, 1982) tomonidan ilgari surilgan Freym Semantikasi nazariyasiga asoslanadi. Ushbu tamoyilni tushuntirish uchun Kruse¹ tomonidan ta’riflangan hamkorlikdagi talqinlar misol sifatida keltiriladi.

Shunday qilib, kognitiv tilshunoslik yondashuvi ma’noni tushunishda kontekst va ensiklopedik bilimlar ajralmas rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

Haqiqatan ham, Taylor ta’kidlaganidek, gapda polisemiya tilning qaysi sohasida ifodalanishi ko‘pincha aniq emas, ya’ni leksik birlikdami yoki kontekstdami, degan savol ochiq qoladi².

Bundan tashqari, Labov tadqiqotida quyidagicha fikrlar mavjud: Agar odamlar oldida shakli kosaga ham, stakanga ham o‘xshaydigan biror predmet, ya’ni idish bo‘lsa, ular uni kartoshka solingan bo‘lsa, kosa deb, qahva quyilgan bo‘lsa, stakan deb atashadi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, so‘zning ma’nosini ko‘pincha kontekst bilan birgalikda yuzaga chiqadi va ko‘pincha leksik birlikdan tashqaridagi omillar bilan shakllanadi.

Uchinchi talqinga ko‘ra, kognitiv tilshunoslik prototip nazariyasini o‘z nazariy asoslaridan biri sifatida qabul qiladi. Bu yondashuv kognitiv psixologiya sohasidagi, xususan Heider va Rosch tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga tayanadi³. Ularning ishlarida ko‘rsatilishicha, insonlar ob’yektlarni zarur va yetarli belgilar asosida emas, balki kategoriyaning prototipiiga o‘xhashlik darajasiga qarab

¹ Cruse, D. Alan (1995): Polysemy and related phenomena from a cognitive linguistic viewpoint. In: P. Saint-Dizier and E. Viegas (eds.), *Computational Lexical Semantics*, 33- 49. Cambridge: Cambridge University Press.

² Tyler, Andrea and Vyvyan Evans (2001): Reconsidering prepositional polysemy networks: the case of *over*. *Language* 77(4): 724-765.

³ Rosch, Eleanor (1978): Principles of categorization. In: E. Rosch and B. B. Lloyd (eds.), *Cognition and Categorization*, 27-48. Hillsdale: Lawrence Erlbaum.

kategoriyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, prototipik a'zolar odamlar tomonidan tezroq esga olinadi yoki ko'proq tilga olinadi, agar ulardan biror kategoriya vakillarini sanab o'tish so'ralsa, ular asosida kategoriya bo'yicha umumlashmalar qilish osonroq kichadi va natijada prototip a'zolarning kategoriyliga mansubligi tezroq tasdiqlanadi,

Lakoff ko'rsatganidek, prototip tushunchasi bir necha turli mezonlar asosida aniqlanishi mumkin:

- so'zning eng tez-tez uchraydigan ma'nosi;
- eng aniq va yorqin yoki eng konkret ko'rinishdagi ma'nosi;
- tarixan eng qadimgi yoki bolalikda birinchi o'zlashtirilgan ma'nosi;
- yoki boshqa ma'nolar eng oson hosil qilinadigan asosiy ma'no.

Ammo bu mezonlar doim ham o'zaro mos tushmaydi. Masalan, *qush* prototipini olaylik: bu abstrakt konseptual birlik bo'lib, u o'zida ushbu kategoriya uchun yuqori ishora qiymatiga ega atributlarni mujassamlashtiradi, masalan: uchadi, patlari bor, tuxum qo'yadi, tumshug'i bor va hokazo.

Shunday qilib, kognitiv-semantik yondashuv so'z ma'nolari orasidagi farqlarni ham ko'pincha prototipga yaqinlik orqali tushuntiradi — bu, ayniqsa, polisemiya holatlarida muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yondashuv (ya'ni prototipga asoslangan qarash) tilshunoslikda quyidagi ikki muhim tushunchaning shakllanishiga sabab bo'ldi:

1. Radial kategoriyalar – bu turdag'i kategoriyalar markaziy elementga ega bo'lib, u yuqori ishora qiymatiga ega ko'plab atributlarni mujassamlashtiradi va shu orqali kamroq markaziy a'zolarning mavjudligini asoslaydi. Eng mashhur misol – ona kategoriyasi bo'lib, unda "biologik ona", "asrab oluvchi ona", "tarbiyalagan ona" kabi turli ma'nolar markazdan tarqalgan.

2. O'xshashlik kategoriyalari – bu kategoriyalarda hamma a'zolar bir xil atributlarga ega emas, lekin ular orasida kamida ayrim atributlar orqali to'g'ridan-to'g'ri emas, bilvosita o'zaro bog'liqlik mavjud. Bu tushuncha Uittgenstein tomonidan ilgari surilgan o'yin misoli orqali mashhur bo'lgan: barcha o'yinlar bir

xil xususiyatga ega emas (masalan, raqobat, yutish, qoidalar), lekin har biri hech bo‘lma ganda boshqalar bilan ayrim umumiyliliklarga ega.

Demak, prototip effektlari va kategoriya tuzilmasi alohida so‘z ma’nolari darajasida; bir-biriga o‘xhash ma’nolarni qamrab oluvchi sxematik birliklar darajasida; bir butun elementning o‘zaro bog‘langan ma’nolari kategoriyasi darajasida ham kuzatiladi. Kuykens va Zavada ta’kidlaganidek: “So‘zning semantik qiymati endi yagona va bir butun tuzilma bo‘lishi shart emas, balki o‘zaro bog‘liq ma’nolar majmuasi bo‘lishi mumkin”⁴.

Xulosa sifatida aytganda, ko‘pma’nolilik hodisasi tilshunoslikda muhim va murakkab fenomenlardan biri bo‘lib, so‘zlarning bir nechta ma’no qatlamlariga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Kognitiv yondashuv bu hodisani inson tafakkuri va idrok jarayonlari bilan bog‘liq holda tahlil qilishga imkon yaratadi. Bu yondashuv doirasida ma’no nafaqat til birliklariga, balki inson tajribasi, kontseptual tuzilmalari va mental xaritalariga asoslanadi. Ko‘pma’nolilik hodisasini kognitiv jihatdan o‘rganish, tilning faqat tashqi shakl emas, balki ichki psixologik va semantik omillar bilan ham chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu esa tilni o‘rgatish, tarjima qilish, sun’iy intellekt tizimlari va til modellari yaratishda yangi yondashuvlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Demak, kognitiv yondashuv orqali ko‘pma’nolilikni chuqurroq tushunish til va tafakkur o‘zaro aloqalarini yoritishda muhim vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nasirov, Muslimjon. "ASSOCIATIVE RELATIONSHIPS IN CLASSICAL POETIC TEXTS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.09 (2022): 349-352.*
2. Nasirov, M., and Malikaxon Nasirova. "METAPHORES IN THE WORKS OF NAZAR ESHONQUL." *Gospodarka i Innowacje.* 42 (2023): 18-22.

⁴ Cuyckens, Hubert and Britta Zawada (2001): Introduction. In: H. Cuyckens and B. Zawada (eds.), *Polysemy in Cognitive Linguistics*, ix-xxvii. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3. Nasirov, Muslimjon. "ANALYSIS OF METAPHORICAL MEANINGFUL UNITS IN A LITERARY TEXT (On the example of the works of Nazar Eshonkul)." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.09 (2022): 342-344.*